

*Matsaidova Sayyora Xudayberganovna,  
Urganch davlat universiteti, "Geografiya" kafedrasida dotsenti,  
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent  
Kadirberganova Sohiba Uralboy qizi  
Urganch davlat universiteti, "Geografiya" mutaxassisligi  
2-bosqich magistranti*

*Матсаидова Сайёра Худайберганоўна,  
Ургенчский государственный университет, доцент кафедры  
"География", кандидат педагогических наук, доцент  
Кадирберганоўна Сохиба Уралбой кизи,  
Ургенчский государственный университет,  
магистрант 2-го курса специальности "География"*

*Matsaidova Sayyora Xudayberganovna,  
Urgench state university, Associate Professor of the "Geography"  
Department, candidate of pedagogical sciences, associate professor  
Kadirberganova Soxiba Uralboy kizi,  
Urgench state university, master of the 2nd stage of the "Geography" course*

**OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA O'RTA OSIYO TABIIY  
GEOGRAFIYASI FANINI O'QITISH METODIKASINI  
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

**ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИКИ  
ПРЕПОДАВАНИЯ ЕСТЕСТВЕННОЙ ГЕОГРАФИИ  
ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В ВУЗАХ**

**ISSUES OF IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING  
NATURAL GEOGRAPHY OF CENTRAL ASIA IN HIGHER  
EDUCATION INSTITUTIONS**

**Аннотация.** *Ushbu maqola oliy ta'lim muassasalarida O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish masalalariga qaratilgan. Maqolada O'rta Osiyo tabiiy geografiyasini o'qitish metodikasini yaratish yechimlari atroflicha ochib berilgan. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasini o'qitishmetodlari bo'yicha misollar keltirilgan.*

**Калит со'злар.** *O'rta Osiyo, tabiiy komponentlar, O'rta Osiyo tog'lari, Shimoliy Tyanshan, Markaziy Tyanshan, G'arbiy Tyanshan, Sharqiy Tyanshan, Issiqko'l, eksperiment*

**Аннотация.** *Данная статья посвящена вопросам совершенствования методики преподавания естественной географии Центральной Азии в высших учебных заведениях. В статье подробно раскрываются решения*

*по созданию методики преподавания естественной географии Центральной Азии. Приведены примеры методики преподавания естественной географии Средней Азии.*

**Ключевые слова.** *Центральная Азия, природные компоненты, горы Средней Азии, Северный Тянь-Шань, Центральный Тянь-Шань, Западный Тянь-Шань, Восточный Тянь-Шань, Иссык-Куль, эксперимент*

**Abstract.** *This article is devoted to the issues of improving the methods of teaching the natural geography of Central Asia in higher educational institutions. The article reveals in detail the solutions for creating a methodology for teaching the natural geography of Central Asia. Examples of methods for teaching natural geography of Central Asia are given.*

**Key words.** *Central Asia, natural components, mountains of Central Asia, Northern Tien Shan, Central Tien Shan, Western Tien Shan, Eastern Tien Shan, Issyk-Kul, experiment*

O`rta maktablarning geografiya o`qituvchilarini tayyorlashda Universitet va pedagogika institutlarining geografiya fakultetida o`tiladigan asosiy fanlaridan biri O`rta Osiyo tabiiy geografiyasi kursining endilikda ahamiyati ortib borishi shubhasiz. Hozirgi o`quv rejasida O`rta Osiyo tabiiy geografiyasi kursini o`rganish uchun ajratilgan soatlar fan talabini qondirmaydi. Nazariy masalalarni yoritishga ajratilgan vaqt ham hozircha juda ulkan tabiiy geografik o`lka hisoblanmish O`rta Osiyo uchun kam hisoblanadi. Respublikamizda ta`lim - tarbiya ishlarini takomillashtirish talaba va o`quvchi - yoshlarning mustaqil izlanishlari, o`qib - o`rganishlariga g`amxo`rlik qilish, buning uchun zarur shart - sharoitlar jumladan, tegishli o`quv qo`llanmalarini tayyorlash haqida ham tez-tez to`xtalmoqda. Shuningdek, auditoriya darslarini kamaytirib, amaliy mashg`ulotlarni kuchaytirish, ayniqsa talabalarning mustaqil ishlash soatlarini ko`paytirishga e`tabor qaratilmoqda. Shu boisdan Oliy o`quv yurtlarining geografiya yo`nalishi talabalari o`zlari yashab turgan, turkiy xalqlarning kindik qoni to`kilgan, go`zal maskan bo`lmish O`rta Osiyo o`lkasining tabiiy komponentlarini chuqur o`rganish uchun harakat qilishi lozimdir [3].

Bugungi kunda geografiya fani O`zbekiston Respublikasi xalq ta`limi tizimida Geografiya fanini o`qitishni rivojlantirish Konsepsiyasi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni bilan

tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini” asosida ishlab chiqilgan dasturlar asosida o‘qitilmoqda [1,4].

Ammo, O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasini o‘qitish masalalari bo‘yicha nazariy manbalar etarli darajada bo‘lgani bilan bu fanni o‘qitishni metodik tizimini takomillashtirish masalalari hozirgi kungacha o‘z echimini topgani yo‘q.

Biz tadqiqotlarimiz jarayonida shunday muammolarga duch keldik, muammolar asosida O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasini o‘qitish metodlarini takomillashtirishimiz va amaliyotda sinovdan o‘tkazish, oliy ta’lim jarayoniga tajribalarimiz natijalarini keng ommalashtirish maqsad qilib olindi.

Tadqiqotlarimiz jarayonida O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi bo‘yicha yozilgan barcha darslik va o‘quv qo‘llanmalar nazariy jihatdan talab darajasida yozilgani diqqatga sazovordir. Ammo bu nazariy bilimlarni talabalarga qanday metodlar yordamida etkazish muammoligicha qolmoqda. Bu holatni ayrim mavzular misolida ko‘rib chiqishimiz mumkin. Masalan “O‘rta Osiyoning Yer usti tuzilishi” mavzusini o‘qitishda faqat ma’ruza dars maqsadiga erishish imkoniyatini bermaydi. Shuningdek, mavzuni faqat xarita bilan bog‘lash ham natija bermasligi aniqlandi. Tadqiqotimiz jarayonida talabalar o‘rtasida faqat ma’ruza shaklidagi darslar, xarita bilan bog‘lab olib borilgan dars natijalarida “O‘rta Osiyoning Yer usti tuzilishi” “O‘rta Osiyo tog‘lari” mavzusida obyektlar tog‘risida to‘liq tushuncha hosil qilinmaganligi va talabalar O‘rta Osiyo tog‘larini bir-biriga nisbatan joylashgan o‘rnini aniqlay olmasliklari ma’lum bo‘ldi. Shu sababli biz tomonimizdan O‘rta Osiyo orografik chizmasini ixchamlashtirishga qaror qildik. Shu bilan birga mavzular matnini qayta tahrirladik. Masalan: Tyanshan tog‘lari: O‘rta Osiyoda Tyanshanni geolog va geograf olimlar quyidagi qismlarga bo‘lganlar.

1. Shimoliy Tyanshan
2. Markaziy Tyanshan


3. G'arbiy Tyanshan

4. Sharqiy Tyanshan

Shimoliy Tyanshan - asosan Iliorti va Kungay olotovidan tashkil topgan: Iliorti tizmasining eng baland cho'qqisi Talg'ar 4973 m.

Iliorti tizmasining markaziy qismida Korjenevskiy muzligi mavjud uzunligi 12 km, Iliorti tizmasidan sharqda Ketmon tizmasi joylashgan. Uzunligi 300 km, eng baland cho'qqisi 3638 m. Kungay Olotovi 280 kmga cho'zilgan. Eng baland cho'qqisi Chotqol 4771 m. Kungay Olatovi sharqiy qismida Terskay Olatovi bilan yaqinlashadi. Kungay Olatovi g'arbiy qismida Qirg'iz tizmasi 375 kmga cho'zilgan. Eng baland nuqtasi Allamiddin 4957 m.

Kungay Olatovining janubida Issiqko'l botig'i joylashgan [2].



**1-rasm. Issiqko'l botig'i Shimoliy Tyanshanni Markaziy Tyanshandan ajratib turishi.**

Shuning bilan birgalikda, bu obyektlarni orografik sxemasini alohida-alohida kichik mavzuga ajratib chizib tushuntirdik. Talabalardan o'tkazilgan so'rovnomalar asosida, olib borgan metodik ishlarimiz natijalari oldingi natijalardan yuqori ekanligini ko'rsatdi.

Biz olib borgan eksperimentlarda har bir mavzu bo'yicha ixchamlashtirish, chizmalar, sxemalardan foydalanishga harakat qildik. Tadqiqot ishlarimiz bo'yicha shunday xulosalar kelib chiqadi:

- Oliy ta'lim Geografiya yo'nalishi talabalariga Jahon geografiyasi fani tarkibidagi O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi bo'limini o'qitish metodikalarini yanada takomillashtirish zarur;
- O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi bo'limini o'qitish bo'yicha alohida metodik qo'llanma yaratish maqsadga muvofiqdir;
- O'rta Osiyo tabiiy geografiyasini o'qitishda orografik sxemalar, chizmalar, to'ldirishga mo'ljallangan jadvallar ishlab chiqish lozim
- O'rta Osiyo tabiiy geografiyasini o'rganish bo'yicha elektron dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq qilish shart.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi 637-sonli yangi tahrirdagi Qonuni.

2. Баратов П.Р., Маматқулов М, Рафиқов А. Ўрта Осиё табиий географияси. Дарслик. Тошкент "Ўқитувчи" 2002.

3. Boymirzayev K. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasidan amaliy mashg'ulotlar. Namangan 2009.

4. Mavlonov A.M. O'rta-maxsus va professional ta'lim muassasalarida umumta'lim fanlarini o'qitilishini takomillashtirish geografiya fani misolida. "Экономика и социум" №4 (119) - 1 2024 [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru)

5. Anthropogenic transformation of oasis landscapes in Khorezm Province, Uzbekistan: A geocological analysis. Abror Khaitbaev, Kuvondik Yarashev, Yunus Karimov, Maqsud Nazarov. E3S Web Conf. 497 02043 (2024)